

UO'K: 627.8.064.2

Rajabov O'. O'.

“GTI va NS” kafedrasi satjyor-o'qituvchisi

"TIQXMMI" MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Ziyodullayev O. O.

PhD talabasi

Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti.

O'zbekiston

CHORTOQ SUV OMBORINING TEXNIK XOLATI O'RGANISH

Annotatsiya: Ushbu maqola Namangan viloyatidagi Chortoq suv omborining rekonstruksiyasi boyicha o'rganishlar hamda kuzatishlar olib borildi, suv omboridagi qurilishdagi va ishlatishdagi kamchiliklar yo'l qo'yilgan xatolar o'rganilib chiqildi hamda kerakli tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: Avariya suv tashlagich, to'g'on o'rkachi, berma, drenaj, ishchi zatvorlar, antikorroziya, pezometr, kollektor, reduktor.

Раджабов У.У.

Ассистент кафедры «ГТС и НС»

Бухарский институте управления природными ресурсами НИУ

«ТИИИМСХ»

Зиодуллаев У.

докторант

НИИ ирригации и водных проблем.

Узбекистан

ИЗУЧЕНИЕ ТЕХНИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ ЧАРТОКСКОГО ВОДОХРАНИЛИЩА

Аннотация: В данной статье были проведены исследования и наблюдения по реконструкции Чартокского водохранилища в Наманганской области,

изучены недостатки в строительстве и эксплуатации водохранилища, а также даны необходимые рекомендации.

Ключевые слова: аварийный водомет, плотина, берма, дренаж, рабочие шлюзы, антикоррозия, пьезометр, коллектор, редуктор.

Rajabov O. O.

Assistant-teacher of the department "HS and PS".

Bukhara institute of natural resources management of the National research university of TIAME

Ziyodullaev U.

PhD student

Scientific-research institute of irrigation and water problems.

Uzbekistan

STUDY OF TECHNICAL CONDITION OF CHORTOK WATER RESERVOIR

Abstract: This article presents the results and observations of the reconstruction of the Chartok reservoir in Namangan region, the shortcomings and errors in the construction and operation of the reservoir were studied, and the necessary recommendations were made.


Keywords: Emergency water discharge, dam embankment, berm, drainage, working gates, anti-corrosion, piezometer, collector, reducer.

Hozirgi paytda mavjud to'g'onlar va boshqa gidrotexnik inshootlar xavfsizligi va ishonchligi darajasi pasayishidan jiddiy tashvishdamiz.

Respublikamizdagi gidrotexnik inshootlar qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni 90 foizni, elektroenergiya ishlab chiqarishni 10 foizni suv bilan ta'minlaydi, umuman olganda iqtisodiyot boshqa sohalarining turg'unligi, asosiy o'sha tumanlarda yashovchi 50 foizni aholining xavfsizligi ushbu gidrotexnik inshootlar xolati bilan bog'liqdir.

Chortoq suv ombori - Namangan viloyatida Chortoqsoy daryosi o'zanida qurilgan suv ombori. Daryo suvini mavsumiy tartibga soladi. 1navbati

1975-yilda qurib tamomlangan. To'liq hajmi 30,0 mln. m³, to'g'oni balandligi 45 m, maksimal suv o'tkazish imkoniyati 50 m³/sek. Namangan viloyatidagi Chortoq, Uchqo'rg'on tumanlaridagi ekinzorlarning suv ta'minotini yaxshilash imkoniyatini beradi. Suv ombori turi o'zanli, suv ombori loyiha bo'yicha 5100 ga yerni sug'orishga mo'ljallangan. Oqimni rostlash turi-mavsumiy. Suv ombori II- sinfga kiradi, seysmik balli -9 ballni tashkil etadi.



1-rasm. Chortoq suv ombori

Suv ombori tarkibi va tasnifi.

Chortoq suv ombori Namangan viloyatining Chortoq tumanida Chortoqsoy daryosida joylashgan. Suv ombori turi o'zanda joylashgan. To'g'on stvori Namangan viloyati Chortoq shahridan 20 km janubda belgilangan. Suv ombori loyiha bo'yicha 5100 ga yerni sug'orishga mo'ljallangan. Oqimni rostlash turi - mavsumiy.

Chortoq suv ombori tarkibiga quyidagi inshootlar kiradi.

1. Tug'on,
2. Suv chiqazgich inshooti,
3. Katastrofik suv tashlama.
4. Suv olib ketuvchi kanal

To'g'on.

To'g'on turi o'zanli. Yon prizmalar qum-shag'aldan bajarilgan, o'zan grunti soz tuproq, Yuqori qiyalik beton plitalar bilan qoplangan qalinligi 1-20 sm o'lchamlari 5x5 metr. Yuqori qiyalik $m_1=3,5$ Pastki qiyalik $m_2=1,25$,

Grunt zichligi: o'zakda $g=1,65$ t/m.

qum shag'alda $g=2,0$ t/m .

Tug'on uzunligi-2.75 km.

O'rkach kengligi-8 m.

Suv chiqazgich inshooti.

Suv chiqazgich inshooti PK 11-50 da joylashgan.

Suv chiqazgich kirish qismi ta'mirlash zatvorlari va ushlashga panjara bilan jixozlangan o'lchamlari 11,4x11,4 m., Balandligi-11,1 m. Ikki ko'zlik temir-beton quvur, turtburchak shaklda, o'lchamlari 4,3x3,1m, uzunligi 15 m, suv sarfi 30 m³/s., Zatvorlar kamerasi to'g'on tanasida joylashgan temir-beton massivdan iborat. Har bitta galereya 1 ta ishchi 1 ta ta'mirlash yassi zatvorlari bilan jixozlangan, Quvur uzunligi - 180 m. Zatvorlar yuqori xizmat kamerasidan boshqariladi. Ularga borish uchun transport galereyasi ko'zda tutilgan.

Katastrofik suv tashlama.

Katastrofik suv tashlama. Suv tashlama traktidan iborat. Trapetsiya shaklidagi kanal shaklida bajarilgan, uzunligi 435 metrni tashkil etadi. Maksimal suv sarfi 70 m³/s Tubi kengligi 1=5 m Qiyaligi $m=1,5$ nishabligi $i=0,057$ qoplama qalinligi $t=0,3$ m.

Suv olib ketuvchi kanal.

Suv olib ketuvchi kanalning suv o'tkazish o'tkazadigan qobiliyati 40 m³/s tashkil etadi, kanal PK3+49 da joylashgan, kengligi 5 m, qurilish balandligi 2,1-2,6 metrni tashkil etadi.

Suv omborining asosiy marfometrik xarakteristikalari va xarakterli chuqurliklari quyidagilar.

Uzunligi - 2,75 km.

Balandligi - 45,0 m

Kengligi maksimum-1,25 km o'rtacha 0,9 km (0,9-1,25).

Chuqurligi maksimum 43,0 m, o'rtacha 30 m (30-43) m.

NDS da suv ombori yuzasi 2,1 km.

Chuqurligi 2 m dan kichik bo'lgan maydon 0,2 km².

Suv ombori to'liq hajmi 30 mln.m³.

Suv ombori foydali hajmi 21,1 mln.m³.

Normal dimlangan satx otmetkasi (NDS) 694,2.

Foydasiz (o'lik) hajmi otmetkasi (UXS) 671,0.

Xulosa. Chortoq suv ombori texnik xolatini o'rganish davomida "Gidrotexnika inshootlari xavfsizligi to'g'risidagi" Qonuni, suv ombori xavfsizlik mezonlari, "Suv ombori ekspluatatsiya xizmati ishini tashkil qilishning asosiy qoidalari"ni diqqat bilan o'rgandim. Suv omborini ma'lumotlarni ko'zdan kechirish, ko'rib chiqishda aniqlangan kamchiliklarni 2020 yil aniqlangan.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'tkir R., Xurshid E. TO'SINSOY SUV OMBORINI ISHONCHLI VA XAVFSIZ ISHLASHI BO'YICHA CHORA TADBIR ISHLAB CHIQUISH //Uz-conferences. – 2024. – №. 1. – С. 61-65.
2. Mirzayev M., Eshonov B., Hikmatov F. KANALLARDAGI ROSTLOVCHI INSHOOTLAR FLYUTBETI FILTRATSIYASIGA OID HISOBLAR //Экономика и социум. – 2022. – №. 9 (100). – С. 153-156.
3. Мирзаев М. А., Хикматов Ф. О., Абдувохитов С. С. ИЗУЧЕНИЕ ТЕХНИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ УПРАДИКСКОГО ГИДРОУЗЛА //Экономика и социум. – 2023. – №. 10 (113)-1. – С. 572-575.
4. Yavov A., and Mirzayev M. "“TOSHRABOT” SUV TAQSIMLASH INSHOOTINING TEXNIK HOLATINI YAXSHILASH" Экономика и социум, no. 9 (100), 2022, pp. 223-226.